

Himoyeva Sarvarbegim JamilovnaBuxoro davlat universiteti
boshlang'ich ta'lim kafedrası
tayanch doktoranti

**BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSALARIDA
O'QUVCHILARNI O'QUV-BILUV TOPSHIRIQLARI ASOSIDA O'QUVCHILAR
BILIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya. Maqolada boshlang'ich sinfi ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni o'quv-biluv topshiriqlari asosida o'quvchilar bilimni takomillashtirish, boshlang'ich sinfi o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi ona tili va o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o'quvchilarga muayyan bilim beriladi. O'zbek tili qonun qoidalari ongli o'zlashtirishga o'rgatish, ularning fikr doiralarni kengaytirishga qaratilgan. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida, o'quv-biluv topshiriqlarining boshlang'ich sinflardagi o'rni va bu orqali o'quvchilarni qiziqtirish yo'llari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinfi, ona tili, dars, o'quvchilar, jamiyat, faoliyat, samarali, o'rganish bilimi, darslik, uslubiy, ijodiy, ifodali, ta'lim, tadqiqot, ifodali, grammatik, belgi, topshiriq.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗНАНИЙ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ УЧЕБНЫХ
ЗАДАЧ НА РОДНОМ ЯЗЫКЕ И УРОКАХ ЧИТАТЕЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ
НАЧАЛЬНОГО КЛАССА**

Аннотация. В статье основной частью важных задач в обучении учащихся младших классов является совершенствование знаний учащихся на основе учебных задач учащихся на занятиях по родному языку и читательской грамоте. проводится на зимних занятиях. В ходе уроков чтения и разговорной речи студентам даются определенные знания по темам, указанным в программе. Юридические нормы узбекского языка направлены на обучение сознательному владению им, расширение кругозора. На занятиях по родному языку и читательской грамотности обсуждается роль учебных задач в начальных классах и способы заинтересовать учащихся.

Ключевые слова: элементарный, родной язык, урок, учащиеся, общество, деятельность, эффективный, усвоение знаний, учебник, методический, творческий, выразительный, учебный, исследовательский, экспрессивный, грамматический, знак, задание.

**IMPROVING STUDENTS' KNOWLEDGE BASED ON LEARNING TASKS IN
MOTHER LANGUAGE AND READING LITERACY LESSONS OF PRIMARY CLASS**

Abstract. In the article, the main part of the important tasks in the education of elementary school students is to improve the knowledge of students based on the educational tasks of students in the classes of mother tongue and reading literacy. is carried out in winter classes. In the course of reading and speaking lessons, students are given certain knowledge based on the topics specified in the program. The legal rules of the Uzbek language are aimed at teaching the conscious mastery of them, expanding their horizons. In the classes of mother tongue and reading literacy, the role of educational tasks in primary grades and ways to interest students are discussed.

Key words: : elementary, mother tongue, lesson, students, society, activity, effective, learning knowledge, textbook, methodical, creative, expressive, educational, research, expressive, grammatical, sign, task.

Kirish. Respublikamizda 2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonunni qabul qilinganligi, maktab ta'lim tizimining ma'naviy - axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan Biz raqamli texnologiyalar asrida, ta'lim karyerada muvaffaqiyat qozonishning, turmush farovonligini oshirishning bosh omiliga aylangan davrda yashayapmiz. Zamonaviy ta'lim bizning nafaqat bilim va ko'nikmalarimizni belgilab beruvchi mezon, balki bizning dunyoqarashimizni, bizning dunyo taraqqiyotiga qo'shadigan hissamizni ham aks ettiruvchi muhim qadriyatdir.

Zamonaviy ta'lim dunyodagi tinimsiz o'zgarishlarga ko'nikkan, turli muammo va to'siqlarga tayyor turadigan professionallarning yangi avlodini shakllantirmoqda. Bunday ta'lim o'quvchilarni nafaqat amaliy ko'nikmalar bilan, balki o'quvchilarga bugungi kunda zarur bo'lgan zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan o'quv texnikalari bilan ta'minlaydi. Bugun dunyoda "ijtimoiy ko'nikmalar"ga (soft skills) ega bo'lgan mutaxassislariga ehtiyoj ortib, ayni paytda "kasbiy ko'nikmalar" (hard skills) o'zining birinchi darajali ahamiyatini yo'qotib bormoqda. Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga o'qitishda o'quvchining yoshi, fiziologik, texnikaviy axborot olish kerak Hozirgi davr o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'yimoqda, bu talablarning eng asosiysi - darsning samaradorligi, uning sifatligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga, maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy kompyuterlarning o'rni beqiyosdir.

Asosiy qism. Ta'limning asosida jamiyat rivojlanishining obyektiv ehtiyojlari turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishilgandan so'ng, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo'liga o'tgan O'zbekistonda hozirgi bosqichda xalq ta'limi tizimiga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor bermoqda. XX asr pedagoglari va psixologlarining diqqat markazida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonini uyg'unlashtirish, faoliyat va ongning o'zaro bog'liqligi nazariyasini ishlab chiqish, mustaqil o'quv-bilish ishlari, o'qishni faollashtirish, ta'lim jarayonini optimallashtirish, faol ta'limning shakl va metodlaridan foydalanish kabi muammolar asosiy o'rin oldi. Darslik – o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda tahlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchiga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg'otish, shu soha bo'yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirishi kerak. Darslik o'qituvchi uchun ham metodik yo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish chuqurligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi. Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining "ssenariyasi"dir. Unda o'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash yo'llari belgilanadi, emotsional – qimmatli qadriyatlarni tarbiyalaydi. Darslikda ta'limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o'quvchiarning ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi. Lekin boshlang'ich maktab darsliklari bag'oyat o'ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo'lib u sinflar sayin asta-sekin vujudga keladi.

Muhokamalar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi ona tili va o'qish darslarida amalga oshiriladi. O'qish va nutq o'stirish darslari jarayonida dasturda belgilangan mavzular asosida o'quvchilarga muayyan bilim beriladi. O'qish ko'nikmalarini takomillashtira borish bilan bir qatorda o'quvchilarni ma'naviy barkamol inson ruhida tarbiyalash vazifasi ham diqqat markazida bo'ladi. Boshlang'ich ta'limda o'qish va nutq o'stirish dasturining maqsad va vazifalariga ko'ra o'qish darslari orqali o'quvchilar to'g'ri, ongli, ravon, tez va ifodali o'qishga o'rgatiladi. Mazkur jarayonning sifatli va samarali amalga oshirilishi bevosita boshlang'ich sinf ona tili darslarini tashkil etishning zamonaviy o'qitish texnologiyalardan samarali foydalanishga bog'liqdir. Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladigan nostandart o'quv topshiriqlarining bir turi grammatik o'yin-topshiriqlardir. Topshiriqning bu turi o'quvchidan izlanishni, bilimdonlikni, topshiriqni va tezkorlikni talab qiladi. O'yin-topshiriqlar ona tili darsining qiziqarli o'tishini ta'minlaydi. Avvalo biz o'quv va biluv topshiriqlari nima degan savolga javob berishimiz lozim. O'quv topshiriqlari bu-boshlang'ich sinf darsliklarida berilgan mashqlar to'plami. Biluv topshiriqlari esa berilgan o'quv topshiriqlari asosida egallangan bilimlar to'plami hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limining samaradorligi o'qitish metodini to'g'ri tanlash, "Ona tili" fanining amaliy yo'nalishidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida ko'proq o'quvchini o'ylashga, fikrlashga undovchi, o'quv topshiriqlarini ishga solish, o'quvchilarda bilish o'rganish ehtiyojini yuzaga keltiradigan dars shakllaridan foydalanish singarilar bilan bog'liq. O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish jarayonida o'qituvchi o'z oldiga bu faoliyatni qanday kengaytirish kerak, degan savolni qo'yishi lozim. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili va amalga oshirilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilardagi bilish faoliyati quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- bilish qiziqishlari;
- o'quv maqsadlari;
- hissiyotlar;
- shaxsiy bezovtalik va hissiy barqarorlik;
- yutuqlarni qo'lga kiritish va muloqot qilishga bo'lgan ehtiyoj;
- intellektual layoqatlilik va muloqotga kirishuvchanlik;
- shaxsiy tajribalar hamda ko'nikmalar. Ona tilidan tashkil etiladigan ta'limiy

o'yinlar oldin egallangan bilimlarni faqat xotirada tiklashni va uni takrorlashni, shu egallangan bilimlarni qisman yangi sharoitda (notanish sharoitda) qo'llashni va tomomila yangi sharoitda qo'llashni talab etishi mumkin. Dars mashg'ulotlarida faqat bir xildagi o'yin-topshiriqlar bilan cheklanib qolmay, balki ko'proq ijodiylikka undovchi o'yin-topshiriqlarga e'tiborni kuchaytirishga to'g'ri keladi. Zero, o'quvchilarni fikrlashga, o'ylashga, matn yaratishga o'rgatmasak, hozirgi zamon darsiga qo'yilgan muhim talab shaxsning rivojlanishiga erishib bo'lmaydi. 1- sinf "Ona tili" darsligida o'yin elementlari bo'lgan o'quv topshiriqlari berilgan mashqlar bor. Quyida shunday mashqlardan namunalar keltiramiz. 2- mashqda rasm va katakchalar berilgan bo'lib, o'quvchilardan rasm nomini topish, katakchalarga joylashtirish so'raladi. Anjir rasmi qayiq rasmi ayiq rasmi. Va yana ko'plab shu turdagi mashqlarni ko'rishimiz mumkin. Yoki 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligidagi "Sharikning tug'ilgan kuni" matni.

Kuz yaqinlashib qolgan edi. Barglar sarg'ayib, suvlar sovib, chug'urchuqlar "majlis" o'tkaza boshlagandi. Shunday kunlarning birida Sharik: -Mening tug'ilgan kunim qachon? -deb qoldi. Hamma o'ylanib qoldi. To'g'ri-da, taqvimda Neftchilar kuni bor, Quruvchilar kuni bor, hatto qushlar kuni bor, Itlar kuni esa yo'q. Bu matn o'quv matni hisoblansa, egallangan bilimlar asosida biluv topshirig'i tuzishimiz mumkin. "Soyabon" o'yini. Yomg'ir yog'ayotgan vaziyatda to'g'ri javoblarni topish orqali soyabon ostiga o'tib oladilar. O'qituvchi o'quvchilarga matn yuzasidan savollar beradi. Fyodor amaki kim? "Ov mavsumi" nima? Matroskin Sharikka: "30-sentabrni tug'ilgan kun qilaver" deb aytishining sababi nimada? Quyida berilgan savollarga to'g'ri javob bergan o'quvchilar yomg'irdan qochib soyabon ostiga yashirinadilar. Shu tariqa o'quvchilar bilimlari baholanib olinadi. Shu tariqa darslikda berilgan topshiriqlar ya'ni (o'quv topshiriqlari)

asosida biluv topshiriqlari tuzib boramiz. Darsda faol qatnashgan o'quvchilar baholanadilar. Yoki 3- sinf darsligidagi (8-bet 3-mashq) yuzasidan gapiradigan bo'lsak, bu yerda quyidagi matn berilgan. Mavzu: Nutq.3-mashq.

Davlat ramzlari

Davlat ramzlari Vatanning mustaqil davlatchilik an'analari bilan bog'liq bo'ladi. Mustaqil bo'lmagan xalqning davlat ramzlari ham bo'lmaydi. Davlat ramzlari xalqni birlashtiradi, uni yagona maqsad sari safarbar etib, hamjihatlikda yashashga undaydi. Har qanday sharoitda ham o'z yurti manfaatlari uchun kurashishga davat etadi. Davlatimiz ramzlariga nimalar kishini bilasiz –a? Albatta ularga O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'i, O'zbekiston Respublikasi Davlat Gerbi, O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi kiradi. O'qituvchi o'quvchilarga ifodali o'qib beradi va o'quvchilar ham o'qitiladi yetarli ma'lumotga ega bo'ladilar. Demak o'quvchilar Davlat ramzlari qaysilar va ularning ko'rinishlari, har bir Davlatning o'zining ramzi borligi haqida bilib oldilar. Bu o'quv topshirig'i hisoblanadi. Endi navbat biluv topshirig'iga: 3- sinf o'quvchilari allaqachon ochiq va yopiq bo'g'in haqida ma'lumotga ega bo'lgan boladilar. Shuning uchun qani o'quvchilar ushbu berilgan matn ichida nechta ochiq bo'g'in va nechta yopiq bo'g'in mavjud? Deb savol berishimiz mumkin. Qani bilimdon o'quvchilar berilgan matnga hammamiz diqqatimizni qaratamiz.

Matn nima haqida ekan?

Davlat ramzlari qaysilar ekan?

Biz yaqinda qaysi davlat ramzi qabul qilingan kunni nishonladik?

Bayroq ranglari qaysilar va ular nimani anglatadi?

Gerbda tasvirlangan Humo qushi timsoli nimani anglatadi?

1-qator ochiq bo'g'inlarni, 2-qator esa yopiq bo'g'inlarni yozish orqali o'tilgan bilimlarni mustahkamlab olishimiz mumkin.

1-qator

dav

tan

dav

lat

ramz

siz

quv

mus

2-qator

la

ri

di

ta

ye

ko'

ga

shi

Qatorlardan qaysi biri ko'roq to'g'ri bajarsa g'olib hisoblanadilar. Demak, biluv topshiriqlari shu tarzda davom etadi. Berilgan topshiriqlarni biluv topshiriqlarini tuzish orqali o'quvchilarga o'rgatilsa, o'quvchilar bir xillikdan chiqadilar va ularning ijodkorliklari ortib boradi. Bundan tashqari ularning darsga qiziqishlari ortib boradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bolalar faoliyatining eng muhim turi bo'lgan o'yin o'quvchining rivojlanishi va tarbiyasida katta rol o'ynaydi. Men o'qituvchi sifatida o'yin tashkilotchisiman. O'quvchilarning darsdagi faolligi bunga bog'liq. Menimcha, nafaqat ona tili darslarida balki boshqa darslarda ham qiziqarli o'yinlar bilan ishlash ajoyib o'rganish imkoniyatlariga ega. Aynan mana shu sinfda olib boriladigan ishlar so'z yasash, grammatika va imloga oid eng muhim ko'nikmalarni shakllantirishga asos bo'ladi. Har kuni darsda bir xil ishni qilish qiziq emas. Ammo har bir darsda o'quvchilarlar qiziqarli topshiriqlar asosida yangi mavzu o'tilsa men o'ylaymanki, yangi mavzu qiyinchiliklari hamda o'rganilayotgan bilimlari esda qolishi osonlashadi va bu ularning faoliyatiga qiziqish uyg'otadi. O'quv va topshiriqlar - bu qiyinchiliklarni o'z ichiga olgan vazifalar. Ular rivojlanish, ta'lim, yangi bilimlarni kashf qilish uchun qurilgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'quv vaziyatini vujudga keltirish o'quvchining bilish faoliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishni har tomonlama asoslashga harakat qilmoqdalar. Agar o'quvchi bilishga intilsa, bilim olishga ehtiyoj sezsa ularda, sog'lom mayllar va qiziqishlar hosil bo'ladi va ular bilish jarayonida muvaffaqiyat qozonadilar. An'anaviy ta'lim

184 sharoitida bilish faoliyati o'qituvchining o'quvchilarga tayyor bilimlarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan harakati sifatida tushuniladi. Mutaxassislar bosqichma-bosqich bilish faoliyatining yangi darajalariga o'tish zarurligini tushuna boshladilar. Dastlab bilimlarning muayyan qismi, keyinchalik esa barcha axborotlar o'quvchilarga tayyor tarzda uzatilmasligi lozimligini mutaxassislar nazariy jihatdan asoslashga muvaffaq bo'ldilar. O'qituvchi o'quvchilarga muloqot asosida taqdim etadigan axborotlarning muayyan qismi mustaqil izlanish uchun asos bo'lishiga erishish nazarda tutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni. O'RQ-637-son 23. 09. 2020. Ta'lim to'g'risida (lex.uz)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash" to'g'risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.
3. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students // Ilmiy xabarnoma. – C. 69.1. Roziqov O., Mahmudov M., Adizov B. Umumiy didaktika, - Toshkent, 2009
4. Hamroyev A. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish : Monografiya
5. Mavlonova K. 2-sinf Ona tili va o'qish savodxonligi darsligi. Toshkent. 2021-yil
6. www.ziynet.uz